



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida Respublika korxonalari tomonidan 331,0 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli (yanvar-dekabr) oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 106,6 % ni tashkil etdi.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, %

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 9,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 0,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarini utilitatsiya qilish – 6,3 % ga o'sishi hisoblandi shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 1,0 % ga pasayish kuzatildi.



* **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,1 trln. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan shag'al – 26,6 %, kaolin – 29,3 % ga oshdi, shu bilan birga, ko'mir qazib olish 3,0 % ga, neft - 6,3 % ga, gaz kondensati - 2,2 % ga, chaqiq tosh - 24,2 % ga, tabiiy gaz qazib olish 1,6 % ga pasaygan.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2018 yil	2019 yil yanvar-dekabr
Ko'mir, ming t.	4 174,4	4 049,5
Neft, ming t.	745,7	698,6
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	60 396,5	59 460,0
Gaz kondensati, ming t.	2 145,7	2 098,3
Chaqiq tosh, ming t.	1 641,8	1 244,0
Shag'al , ming t.	401,4	508,0
Kaolin, ming t.	291,8	377,2


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarining chiqarish hajmi hamda o'sish sur'ati



 Ishlab chiqarish hajmi (ming t.)
  o'sish sur'ati %

Konchilik


(2019 yil yanvar-dekabr)



Ishlab chiqaradigan sanoat

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 264,4 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,9 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,6 % ni (2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan - 1,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 25,3 % (27,8 %), o'rta-quyi texnologiyali - 37,5 % (32,1 %) va quyi texnologiyali - 35,5 % (38,7 %) ni tashkil etdi.


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 22,3 % (2018 yilga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi - 19,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 22,0 % (2018 yilga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 6,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 16,1 % (2018 yilga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 5,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 16,1 % (2018 yilga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 8,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 9,7 % (2018 yilga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 4,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2018 yil	2019 yil yanvar-dekabr	2018 yilga nisbatan o'sish, %
Yengil avtomobillar, dona	220 667	271 113	122,9
Yuk avtomobillari, dona	4 237	5 320	125,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	1 463,9	1 486,1	101,5
Avtomobil dvigatellari, ming dona	158,8	200,6	126,4
Paxta tolasi, ming t.	817,7	476,5	58,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	185,1	159,5	86,2

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yuk avtomobillari - 1,3 m., yengil avtomobillar - 1,2 m., avtomobil dvigatellari - 1,3 m., avtobuslar - 1,6 m., yurgizuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 1,2 m., radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chamberaklari, rul kolonkalari va mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 1,4 m. ga oshdi.


2019 yil yanvar-dekabr oylarida avtobus ishlab chiqarish




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 1 534 dona avtobus ishlab chiqarildi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 martaga oshgan bo'lib, eng yuqori ishlab chiqarish mart oyida kuzatilib 204 donani tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida traktor ishlab chiqarish

Avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish sanoatida 200,6 ming dona dvigatellar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,4% o'sishga erishildi hamda eng yuqori ishlab chiqarish oktabr oyida kuzatilib 25,1 ming donani tashkil etdi.




2019 yil yanvar-dekabr oylarida yuk avtomobillari ishlab chiqarish



● Yuk avtomobillari (dona)

2019 yil yanvar-dekabr oylarida jami 5 320 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,6 %ni, shuningdek, eng yuqori ishlab chiqarish noyabr oyida kuzatilib 616 donani tashkil etdi.


2019 yil yanvar-dekabr oylarida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida avtomashinalar ishlab chiqarish (dona)




Nexia T-250




Cobalt



Damas




Lacetti Gentra




Davomi




Spark




Tracker



Labo




Malibu-2




Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2019 yil yanvar-dekabr oylarida 73 151 dona “Nexia T-250” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,3%), 56 211 dona “Cobalt” (149,4%), 51 824 dona “Damas” (149,7%), 44 508 dona “Lacetti Gentra” (133,6%), 24 249 dona “Spark” (83,4%), 7 930 dona “Tracker”, 7 288 dona “Labo” (98,7%) hamda 5 944 dona “Malibu-2” avtomobillari (89,7%) ishlab chiqarildi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 2 022 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 58,2% tashkil etdi, shuningdek eng yuqori ishlab chiqarish dekabr oyida kuzatilgan bo'lib 739 donani tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 2 043 dona kultivatorlar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 178,0% ni, shuningdek, eng yuqori ishlab chiqarish aprel oyida kuzatilib 325 donani tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2018 yil	2019 yil yanvar-dekabr	2018 yilga nisbatan o'sish, %
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.	14 828,4	17 937,3	121,0
Portlandsement, ming t.	8 353,4	9 681,1	115,9
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	10 961,0	11 504,0	105,0
Dizel yoqilg'isi, ming t.	1 080,8	1 030,5	95,3
Avtomobil benzini, ming t.	1 147,0	1 025,1	89,4
Traktorlar, dona	3 477	2 022	58,2


Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari kimyo korxonalari ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib o'tgan yilning shu davriga nisbatan, azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 90,3 %), ammoniy sulfat (104,9 %), kaliy xlorid (109,2 %), ammoniy nitrat (103,9 %), karbamid (106,2 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va laklar (121,0 %), kaustik soda(150,0 %) ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,1 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,4 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2018 yil	2019 yil yanvar-dekabr
Elektroenergiya, mln.kVt/s	62 424,8	61 640,7
Iссиqlik energiyasi, ming Gkal	28 743,1	31 460,9
Ko'mirni er ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub. m.	326 557,0	269 218,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,3 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 1,5 martaga, tarkibida mis bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 1,8 martaga, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 1,7 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 17,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 25,6 % ga, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 48,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2018 yil	2019 yil yanvar-dekabr
Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming t.	290,9	153,3
Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, t.	4 422,0	6 504,0
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	170,7	214,4


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini o'sish sur'ati, %



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 111,5 trln.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 12,1 % ga o'sdi, jami sanoatdagi ulushi esa 33,7 % ni tashkil etdi.

2018 yilning mos davriga nisbatan 2019 yilda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi, %



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

2019 yil yanvar-dekabr



2018 yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2019 yil yanvar-dekabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 69,0 % dan 68,0 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,1 % ni (2018 yil yanvar-dekabr oylarida 7,3 %) ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 23,9 % ni, shuningdek, Toshkent shahri 20,7 % ni, Toshkent viloyati 10,2 % ni, Samarqand viloyati 8,6 % ni hamda Farg'ona viloyati 5,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (112,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xorazm viloyati (122,7 %), Andijon viloyati (118,7 %) hamda Qashqadaryo viloyatlarida (112,3 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yilga nisbatan o'sish, %
O'zbekiston Respublikasi*	111 494,3	100,0	112,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 234,9	2,0	104,3
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	26 618,8	23,9	118,7
Buxoro	5 077,5	4,6	107,7
Jizzax	2 277,0	2,0	107,3
Qashqadaryo	4 018,5	3,6	112,3
Navoiy	3 350,2	3,0	104,9
Namangan	5 722,4	5,1	110,8
Samarqand	9 572,4	8,6	102,8

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yilga nisbatan o'sish, %
Surxondaryo	1 662,5	1,5	111,9
Sirdaryo	2 699,5	2,4	106,1
Toshkent	11 318,5	10,2	102,5
Farg'ona	6 332,1	5,7	109,4
Xorazm	5 565,7	5,0	122,7
Toshkent sh.	23 050,0	20,7	109,2

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 21,4 %, shuningdek, Toshkent viloyati 16,4 % ni, Samarqand viloyati 9,3 % ni, Qashqadaryo viloyati 6,5 % ni hamda Farg'ona viloyati 6,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (116,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Namangan viloyatida (125,5 %), hamda Surxondaryo viloyatida (121,7 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yilga nisbatan o'sish, %
O'zbekiston Respublikasi*	35 727,0	100,0	115,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 331,2	3,7	108,8

viloyatlar:

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yilga nisbatan o'sish, %
Andijon	1 991,1	5,6	105,6
Buxoro	1 846,6	5,2	103,0
Jizzax	689,1	1,9	102,7
Qashqadaryo	2 315,6	6,5	109,8
Navoiy	1 326,5	3,7	104,5
Namangan	1 977,4	5,5	125,5
Samarqand	3 324,1	9,3	111,0
Surxondaryo	852,5	2,4	121,7
Sirdaryo	1 031,9	2,9	111,7
Toshkent	5 847,0	16,4	107,0
Farg'ona	2 290,0	6,4	119,0
Xorazm	1 263,5	3,5	109,3
Toshkent sh.	7 646,0	21,4	112,4

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 32,5 %, shuningdek, Toshkent shahri 20,3 % ni, Samarqand viloyati 8,2 % ni, Toshkent viloyati 7,2 % ni hamda Xorazm viloyati 5,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (110,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xorazm viloyati (127,3 %), Andijon viloyati (119,9 %) hamda Qashqadaryo viloyatlarida (116,0 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yilga nisbatan o'sish, %
O'zbekiston Respublikasi	75 767,4	100	110,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	903,7	1,2	98,2
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	24 627,7	32,5	119,9
Buxoro	3 230,9	4,3	110,6
Jizzax	1 587,9	2,1	109,4
Qashqadaryo	1 702,9	2,2	116,0
Navoiy	2 023,7	2,7	105,2
Namangan	3 745,0	4,9	104,4
Samarqand	6 248,3	8,2	98,9
Surxondaryo	810,0	1,1	103,2
Sirdaryo	1 667,6	2,2	102,9
Toshkent	5 471,5	7,2	98,1
Farg'ona	4 042,1	5,3	104,6
Xorazm	4 302,1	5,7	127,3
Toshkent sh.	15 404,0	20,3	107,6

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 95,1 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi, tutgan ulushi 28,7 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 28,7 % ni tashkil etdi.

Ushbu korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi 27,3 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining ulushi 72,6 % ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2019 yil yanvar-dekabr, mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, %
O'zbekiston Respublikasi*	331 006,6	106,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12 729,7	105,0


* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



	2019 yil yanvar-dekabr, mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, %
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	33 027,3	114,7
Buxoro	14 585,8	108,9
Jizzax	4 789,5	105,8
Qashqadaryo	20 552,2	94,4
Navoiy	44 540,4	104,5
Namangan	9 092,4	114,0
Samarqand	15 863,3	106,1
Surxondaryo	4 402,8	109,3
Sirdaryo	7 217,0	102,4
Toshkent	53 930,5	108,2
Farg'ona	19 490,5	105,9
Xorazm	8 811,6	111,7
Toshkent sh.	58 748,5	111,1


Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 17,7 %), Toshkent viloyati (16,3 %), Navoiy (13,5 %), Andijon (10,0 %), Qashqadaryo (6,2 %) va Farg'ona (5,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (2019 yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yilga nisbatan, %)



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Andijon (2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 114,7 %), Xorazm (111,7 %), Toshkent (108,2 %), Namangan (114,0 %), Samarqand (106,1 %), Buxoro (108,9 %) va Surxondaryo (109,3 %) viloyatlarida hamda Toshkent (111,1 %) shahrida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.


O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 17,7 %), Toshkent (16,3 %), Navoiy (13,5 %), Andijon (10,0 %), Qashqadaryo (6,2 %) hamda Farg'ona (5,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Surxondaryo (1,3 %) hamda Jizzax (1,4 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlarining o'sish sur'ati 2018 yilga nisbatan %



Andijon (2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 118,7 %), Xorazm (122,7 %), Namangan (110,8 %), Sirdaryo (106,1 %), Buxoro (107,7 %), Farg'ona (109,4 %) hamda Qashqadaryo (112,3 %) viloyatlarida iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.


Iste'mol mahsulotlarining eng katta ulushi Andijon viloyatida ishlab chiqarilganligini ta'kidlash lozim (respublika iste'mol mahsulotlarining 23,9 %), Toshkent shahri (20,7 %), Toshkent (10,2 %) va Samarqand (8,6 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga
to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol
mahsulotlari ishlab chiqarish, (ming so'm)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
O'zbekiston Respublikasi	9 857,0	3 320,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 756,4	1 186,2
viloyatlar:		
Andijon	10 663,6	8 594,5
Buxoro	7 638,5	2 659,1
Jizzax	3 503,1	1 665,5
Qashqadaryo	6 330,4	1 237,7
Navoiy	45 067,7	3 389,9
Namangan	3 268,4	2 057,0
Samarqand	4 132,7	2 493,8
Surxondaryo	1 693,6	639,5
Sirdaryo	8 610,1	3 220,6
Toshkent	18 470,0	3 876,3
Farg'ona	5 242,8	1 703,3
Xorazm	4 760,0	3 006,5
Toshkent sh.	23 121,1	9 071,6

Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 70,6 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 15,0 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 21,2 %) Toshkent shahriga, 7,7 mingtasi (10,9 %) Farg'ona viloyatiga, 7,5 mingtasi (10,7 %) Toshkent viloyatiga, 6,6 mingtasi (9,3 %) Andijon viloyatiga, 6,0 mingtasi (8,5 %) Samarqand viloyatiga hamda 5,5 mingtasi (7,8 %) Namangan viloyatiga to'g'ri kelmoqda.



2019 yil yanvar-dekabr oylarida respublikada 19 530 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shundan 2 796 ta (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,3 %) Toshkent shahrida, 2 043 ta (10,5 %) Toshkent viloyatida, 1 971 ta (10,1 %) Samarqand viloyatida 1 830 ta (9,4 %) Andijon viloyatida hamda 1 663 ta (8,5 %) Farg'ona viloyatida tashkil etildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z

ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 839 ta loyiha bo'yicha 21,8 trln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib jami sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 6,6 % ni tashkil etdi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 549,4 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi jami respublika eksport hajminig 3,1 %ni tashkil etdi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2019 yil yanvar-dekabr oylarida 10 038 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 9,2 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2018 yil yanvar-dekabrga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining o'sishi kuzatildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar
ishlab chiqarishni mahalliyashtirish
Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	714	839
Korxonalar soni, birlik	297	340
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	15 010,4	21 750,7
Eksportga qilingan		
mahalliyashtirilgan		
mahsulot hajmi, mln. AQSH	457,8	549,4
dollar		
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	1 092	10 038

**Sanoat statistikasi
boshqarmasi**

Tel.: (71) 230-80-46